

Samarqand viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi


2019 yil yanvar-iyun (dastlabki ma'lumot)



Viloyatda o'rtacha oylik ish haqi yanvar-iyun oylarida **1738,2** ming so'mni tashkil etib viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Samarqand shahrida **2018,9** ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **116,1** %), Jomboy tumanida **2162,7** ming so'mni (**124,4** %) Urgut tumanida **1816,9** ming so'mni (**104,5** %), tashkil etgan bo'lsa, Ishtixon tumanida **1614,8** ming so'mni (**92,9** %), Nurobod tumanida **1605,9** ming so'mni (**92,4** %), Bulung'ur tumanida **1521,2** ming so'mni (**87,5** %), tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan % da)





Samarqand viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'yektlaridan tashqari, ming so'm)

	2018 yil yanvar-iyun	2019 yil yanvar-iyun	O'sish sur'ati, %
Samarqand viloyati	1275,6	1738,2	136,3
Samarqand sh.	1529,4	2018,9	132,0
Kattaqo'rg'on sh.	1353,5	1710,2	126,4
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	1069,1	1475,9	138,1
Bulung'ur	1131,1	1521,2	134,5
Jomboy	1487,4	2162,7	145,4
Ishtixon	1141,6	1614,8	141,5
Kattaqo'rg'on	1121,5	1484,4	132,4
Qo'shrabot	1029,8	1464,0	142,2
Narpay	1139,1	1448,2	127,1
Payariq	1060,8	1495,3	141,0
Pastdarg'om	1135,9	1550,2	136,5
Paxtachi	1001,2	1551,8	155,0
Samarqand	1035,5	1491,5	144,0
Nurobod	1208,9	1605,9	132,8
Tayloq	1050,5	1490,5	141,9
Urgut	1198,9	1816,9	151,5



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(2019 yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'yektlarisiz, ming so'm)

•Sanoatda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2763,2 ming so'mga to'g'ri keldi va 2018 yilning shu davri bilan taqqoslaganda 40,8 % ga oshdi.



•Qurilish sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1855,4 ming so'mga to'g'ri keldi va 2018 yilning shu davri bilan taqqoslaganda 30,5 % ga oshdi.

•Savdo sohasida o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1491,6 ming so'mni tashkil qildi va 2018 yilning mos davri bilan taqqoslaganda minus 2,8 % ga kamaygan.



•Tashish va saqlashda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1285,3 ming so'mni tashkil qildi va 2018 yilning mos davri bilan taqqoslaganda 17,9 % ga oshdi.



•**Axborot va aloqa** sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1818,1 ming so'mga to'g'ri keldi va 2018 yilning shu davri bilan taqqoslaganda 21,1 % ga oshdi.



•**Moliya va sug'urta** faoliyati sohasida o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3209,3 ming so'mni tashkil qildi va 2018 yilning mos davri bilan taqqoslaganda 32,2 % ga oshdi.

•**Ta'lim sohasida** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1670,8 ming so'mni tashkil qildi va 2018 yilning mos davri bilan taqqoslaganda 37,6 % ga oshdi.



•**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar** sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1403,5 ming so'mga to'g'ri keldi va 2018 yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 44,9 % ga oshdi.




•**San'at, ko'ngil ochish va dam olish** sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1416,9 ming so'mga to'g'ri keldi va 2018 yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 36,6 % ga oshdi.



•**Boshqa faoliyat turlari** sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1696,2 ming so'mga to'g'ri keldi va 2018 yilning xuddi shu davri bilan taqqoslaganda 36,9 % ga oshdi.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(2019 yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'yektlarisiz, ming so'm)





Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2019 yil iyun oyida **577,2** ming so'mni tashkil etgan, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 18 yanvardagi 47-sonli qaroriga binoan, mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasiga o'zgartirish kiritildi va 1,2,3-razryadlari koeffitsiyentlari oshirildi) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.

